



THE SIGNIFICANCE OF  
BUKHARA IN THE ISLAMIC  
CIVILIZATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-  
PRACTICAL ONLINE CONFERENCE

OZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA ORTA MANSAS  
TULUM VAZIRLIGI



OZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VAZIRLIGI



BUXORO VILAYAT  
HOKIMIYATI



28-29 May, 2020  
Bukhara

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ  
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА  
КАФЕДРАСИ**

**“БУХОРОНинг ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА  
УНГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ”**

**мавзуидаги халқаро илмий-амалий анжуман (видеоконференция)**

**МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

**28-29-МАЙ 2020 ЙИЛ**

**БУХОРО, 2020 йил**

## YETTI PIR VA YETTI IQLIM

*Qalandarova Dilafro'z  
Nizomiy nomidagi TDPU  
Jumayeva Gulnoza  
Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi*

Agar nur bo‘lmanida insoniyat yorug‘lik qanday ne’mat ekanligini anglamagan quyosh bo‘lmanida esa tong otishi mumkinligi haqida o‘ylab ham ko‘rmagan bo‘lar edi. Shunday ekan agar inson qalbida quyosh bo‘lmasa, u to‘g‘ri yo‘ldan adashadi. Iymon ko‘ngillarni yoritguvchi quyoshga o‘xshaydi. VII asrda insoniyat osmoniga yangi, islom quyoshi balqidi. Hozirda butun jahonda ikki milliardga yaqin inson shu dingga e‘tiqot qilib, ular bir quyosh ostida birodarlashishdi. Sharq xalqlari ma‘naviyatining ajralmas bir qismiga aylangan tasavvuf ta‘limoti esa qaysidir ma’noda islomda ta’kidlangan “komil insonga aylanish” maktabi vazifasini o‘tadi.

Tasavvuf (so‘fizm) ta‘limoti VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan bo‘lib, u dastlab zohidlik-tarkidunyochilik (bu dunyo xoyu-havaslaridan kechish) harakati ko‘rinishida Bog‘dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyildi. Aslida bu termin "sufiy" so‘zidan, "sufiy" esa arabcha "so‘f" dan kelib chiqqan bo‘lib arablarda bu so‘z oddiy mato-gazlamani anglatgan.

Tasavvufning ilk davrlarida so‘fiylik yo‘lini tutgan kishilar boshqalardan ajralib turish uchun shu matodan tikilgan hirqa (chakmon) yoki po‘stin kiyib yurishgan. Ayni shu sabab ularni so‘fiylar ya’ni shu xildagi chakmon kiyib yuruvchilar deb atashgan. Bu yo‘lni tanlaganlar o‘zlarini boshqa odamlardan pok tutishlari, g‘aribona hayot kechirishlari, doimiy toat-ibodatda bo‘lib, faqat Allohnning diyordoni tilashlari bilan ajralib turishgan. Hamma narsaning oxirida o‘zlikdan kechish-so‘fiylik ta‘limotining ma’nosi hisoblangan. Bu borada buyuk so‘fiy Boyazid Bistoniyning: tasavvuf ilmiga oid adabiyotlarda “bizning hech narsamiz yo‘q, lekin ketidan yugurib g‘am tashvishda ham emasmiz” degan fikrlarini uchratishimiz mumkin. Tasavvuf ilmida jamiki illat va yomonliklar nafs ta’masidan kelib chiqadi. Komil inson bo‘lish uchun avvalo jism va nafs ehtiyojini yengish kerak deb o‘rgatiladi. So‘fiylik yo‘li, chin insonlik ma’nosini anglash yo‘li deb qaraladi.

Bu ta‘limot ayniqsa Sharqda o‘zining samarali ta’siriga egadir. Aytadilarki, Yer yuziga Quyosh nur taratsa, Buxoroning (O‘zbekiston) o‘zidan samoga nur taralar emish. Buning sababi Buxoro zaminida tasavvuf ilmining yetti ustuni bo‘lmish avliyolar, yetti pir qo‘nim topganligi bilan bog‘lanadi. Ular:

1. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy (Xojagon)
2. Xoja Muhammad ar-Revgariy (Mohitobon)
3. Mahmud Anjur Fag‘naviy
4. Xoja Ali Romitoniy
5. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy
6. Xoja Sayid Amir Kulol
7. Xoja Bahouddin Naqshband Buxoriy.

Yetti pir tarixida har bir pir keyingi pirga ustozlik qilgan. Ya’ni o‘zidan keyingi pirni tarbiyalagan. Bu zanjir to yettinchi pirga qadar davom etgan va yettinchi pirning (Bahouddin Naqshband) ustozining iktaligi bilan yakunlangan. Birinchi ustoz pirlarning oltinchisi bo‘lmish Xoja Sayid Amir Kulol bo‘lsa, ikkinchisi uning ma‘naviy ustozи Abduxoliq G‘ijduvoniydir. (Abduxoliq G‘ijduvoniyning ustoz bo‘lishi yettinchi pirning tushida nozil bo‘ladi va tushi orqali ustozidan yo‘l-yo‘riq o‘rganadi). Bu yettilik zanjirida zanjirboshi bo‘lmish birinchi pir (Abduxoliq G‘ijduvoniy) va zanjir so‘ngidagi yettinchi pirgina (Bahouddin Naqshband) alohida tariqatga asos solishadi va bunda ham ustoz shogirtlik an’anasi saqlanib, birinchi tariqat (Xojagon tariqati) va keyingi tariqat hisoblanmish Naqshbandiya tariqatining yuzaga kelishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. G‘ijduvoniy Xojagon ta‘limotida sakkizta asosiy qonun, yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqqan. Bu sakkizta yo‘l-yo‘riqqa keyinchalik Naqshband tomonidan yana uchta asosiy qonun qo‘silib, u Naqshbandiya tariqatining o‘n bir asosiy qoidasiga aylanadi. Buyuk mutasavvuf Abduxoliq G‘ijduvoniydan bizgacha ulkan ma‘naviy-ilmiy me’ros qolgan bo‘lib, ularning bizgacha yetib

kelganlari "Vasiyatnama", "Risolayi tariqat", "Risolayi Sohibiya", "Az guftori Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy" lardir.

Yetti pirning ikkinchisi bo'lmish Xoja Muhammad ar-Revgariy (1166-1263) hazratlari ulug' avliyo, ilm, hilm, taqvo, riyozat ahlidan bo'lgan bo'lib, xaql orasida Xoja Orif Mohitobon nomi bilan tanilgan. U Shofirkonning (Buxoro, O'zbekiston) Revgar qishlog'ida tavallud topgan. Malumki, "Silsilayi sharif" dagi o'ninch halqaning piri, murshidi Xazrat Xojayi Jahon Abduxoliq G'ijduvoniy deb tan olinadi. O'n birinchi halqaning piri esa Xoja Orif Revgariydir. Naql qilinishicha bu zot o'rtal bo'yli, oy yuzli, katta ko'zli, kamon qoshli va tanalaridan mushki anbar hidi ufurib turganligi sababli ularni yurt odamlari Mohitobon deb atashgan. (Ba'zi manbalarda Mohitobon Yusuf a.s.dan keyingi eng chiroyli inson bo'lganligi haqidagi manbalar ham uchraydi.) Xazrat Mahdumi A'zam Dahbediyining "Maqomati Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy" asarida yozilishicha, Xoja Muhammad Revgariya "Orif" nomini Xazrat Xizr a.s berganlar. Ya'nikim, ul zot Xazrat Abduxoliq G'ijduvoniyning huzurlariga kelganlarida Xazratning barcha shogirtlarini uyqu bosardi. Xoja Muhammad ar-Revgariy Xizr a.s suhbatlaridan bahramand bo'lish maqsadida ko'zlariga tuz sepadilar va shu bois og'riqning zo'ridan g'aflat bosmaydi. Bu holni ko'rib Xizr a.s "Siz Orif bo'lgaysiz, inshaalah"- deb aytadilar. Bu asarda bundan tashqari Xoja Orif bir vayrona masjid ichida zikr qilib turgan paytlari tanalaridan nur taralib, Ka'ba ul zotning boshlarida soya bo'lib turganligini ko'rgan insonlar bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Xoja Orif ar Revgariy "Orifnoma" nomli asarning muallifi hisoblanadi. Bu kitob hijriy 622, milodiy 1125-yilda yozilgan. "Orifnoma" risolasi ham tasavvufning o'zak jihatlari va nazariy masalalari haqidadir. Unda tasavvufning "tovba" maqomiga (solihning avvalgi barcha gunohlariga tovba qilib, kelajakda biror gunoh ish qilmaslikka azmu qaror berishi) alohida e'tibor qaratilgan. Xoja Orif ar Revgariy tovbani "islom dinining tug'i" deya ta'kidlagan. Ma'lumki Alloh ham bandalarini tovbalari uchun suyguvchidir. ("Sizlarning ibodatingiz kibr bilan, ularning gunohlari tovba bilandir". ("Qissasi Rabg'uziy" ning "Odamning yaratilishi" bobidan). Asarda: "Qaysi odamiki tovba qilib, tag'in gunoh ishlarga qo'l urgay, Alloh taollo bunday bandalar tovbasini harom qilgay va alarga hargiz nazar tashlamasdur" deyilgan. "Orifnoma"da toza tan va toza qalb ulug'langan, har ikkisini pok tutmoqlikka da'vat etilgan. ("Bu dunyoda vujuding bilan, oxiratda qalbing bilan bo'l". "Orifnoma"dan). Mazkur asarda ijtimoiy munosabatlar ham din bilan bog'lab sharhlanadi. Masalan, "Birovni haddan tashqari madh etmoq majusiylik belgisidir va bu Alloh Taoloni inkor etmoq ila barobardir". Asarda bundan tashqari "Avliyolik alomati uchtadir: birinchisi, baland darajani egallaganda ham kamtar bo'lmoq, ikkinchisi, qudrat-u sabru toqati yetguncha parhezdorlik qilmoq va so'ngisi qo'lidan kelgunicha insof qilmoqdir", - deyiladi. Ya'ni, banda baribir adolat borasida Alloh oldida ojizdir, shu bois u adolat va insofni o'ziga va boshqalarga ham qurbi yetgunicha qilmog'i lozimligi ta'kidlanadi. Asardagi quyidagi so'zlar asarni ko'chirgan hattot tomonidan yozilgan:

"Afsus shud pinhon Mohitobon ba zeri xok,  
Kilkam sayahpo'sh, jigar resh, sina chok.  
Tarix bahri rehlati o'justam az qalam  
Qutbi zamon va Orifi billoh zeri raqam.

Ma'nosi: Afsus Mohitobon tuproq ostida pinhon bo'ldi, qalamim qora kiyindi, jigarim tilindi, siynam chok bo'ldi. Uning marhum bo'lgan yili "qutbi zamon va Orifi billoh zeri raqam" dan chiqadi.

Tarixning ba'zi bir qilmishlari tufayli biz ko'p yillar davomida bu zot haqida ma'lumotga ega emas edik. 1993-yili Bahouddin Naqbandiyning 675 yillik yubileyi munosabati bilan O'zbekistonga tashrif buyurgan Pokiston shayhi Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy Hazrat Mohitobon qabrlarini ziyorat qiladi va ikki misra o'qiydi. Unga hamroh bo'lganlar bu go'zal jumlalar muallifi kim ekanligini so'raganlarida shayh hayron bo'lib, "Axir bu jumlalar sizlarning bobokaloningizning "Orifnoma" asaridanku" deb javob beradi va Pokistonqa qaytishi bilan u yerdagi "Orifnoma" dan nusxa ko'chirish maqsadida O'zbekistonga yuboradi. Shundan so'ng bu kitob tarjima qilinib kitobxonlar ommasiga taqdim etiladi. Xoja Orif ar Revgariya "Qutbul avliyo" (valiylar

yo‘lboshchisi) unvoni berilgan.

Yettingchi pir hisoblanmish, Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshbandal-Buxoriy (ko‘proq Bahouddin yoki Xo‘ja Bahouddin, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) Buxoro viloyati Kogon tumanida tavallud topgan. (1318-1388). Pirning denga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U Naqshband tasavvufidagi ilgari surilgan talablarni bir qadar yumshatdi, mo‘tadillashirdi, kundalik turmushga moslashtirdi. Bahouddin Naqshband tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlariga ochiq-oshkora qo‘l siltamay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g‘oyani musulmon olamida aholining juda keng qatlamiga yetib borishini ta‘minladi. Naqshband xalq orasida "Balogardon" ya’ni duo kuchi bilan balo-qazoni daf qiluvchi nomi bilan ham mashhurdir. U o‘zining ta’limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G‘ijduvoniylarga asoslangan. Ta’limotning asosini "Dilba yor-u, dasba kor", ya’ni ko‘ngil hamisha Allohda qo‘l esa har doim mehnatda bo‘lsin degan tamoyil tashkil etadi. Bahouddin Naqshband haqida, Naqshbandiya tariqati va naqshbandiy shayxlar haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Birgina O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari xazinasining o‘zida Naqshbandiyaga oid 195 kitob mavjud bo‘lib, bu Naqshbandiya tariqatining ahamiyati nechog‘lik salmog‘li ekanligini bildiradi. Xazinada Bahouddinning suyukli xalifasi Muhammad Porso tomonidan yozilgan Bahouddin hayoti, turmush tarzi, ta’limoti haqidagi kitoblar ham mavjud. Bahouddin Naqshband vafotidan so‘ng Naqshbandiya tariqati keng yoyildi. Xususan, XV asrda Xo‘ja Ahror Ubaydulloh Valiy bu tariqatning yirik namoyondasi sifatida maydonga chiqdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi zotlar ham mazkur tariqat namoyondalari bo‘lishgan. Ularning asarlarida ham Naqshbandiya tariqati ta’sirini sezish mumkin. Naqshbandiya taqiqatida rasm-rusumlar, urf-odatlarni ko‘r-ko‘rona bajarish, riyo, soxta dindorlik qattiq qoralanadi. Inson o‘rni mansabi bilan emas, ma‘naviy kamoloti bilan o‘chanib, halol mehnat qilish lozimligi va birovga yuk bo‘lmoqlik qoralanadi. Dindan o‘z maqsadlari va manfaati yo‘lida foydalanish qat’ianan ta’qilqanadi. Naqshbandiya tariqati XVI asrda Hindistonda keng tarqaldi. Tariqatning Turkiyada yoyilishida Mulla Abdulloh Simaviy, Ahmad Buxoriylarning xizmatlari katta. Mazkur ta’limot XVI-XVII asrlarda Eronning Nishapur, Isfahon, Yazd shaharlarida keng tarqalib, shu orqali Iroq, Falastin, Iordaniyada ko‘plab tarafdozlarga ega bo‘lgan. Hindiston orqali u Malayziya, Seylon va Indoneziyaga tarqaldi. Keyingi asrlarda esa Rossiya, Bosniya va boshqa Yevropa mamlakatlari yoyildi. Bugungi kunda AQSH, Kanada va Avstriyada Naqshbandiya xonaqohlari, markazlari va jamg‘armalari bor. Naqshbandiyada: "qalblarning buyukligi aslida bir, lekin ulardagi ma‘rifat buyukligi farqlidir" deb o‘rgatiladi. Ya’ni, qalb Alloh tomonidan yaratiladi, faqat undagi bilim va ma‘rifat turlichcha bo‘ladi. Bahouddin Naqshband "zohirda xalq bilan, haqiqatda Haq bilan bo‘linglar" deya nasihat qiladi. Yanikim, bu olamda ham muvozanatni saqlamoq, ko‘ngilni esa mudom Alloh bilan tutmoq lozimdir. Naqshband har doim "Shamga o‘xshangiz, toki hammaga ravshanlik bag‘ishlab, o‘zingiz qorong‘uda bo‘lingiz (kamtar bo‘l ma‘nosida) hoyu -havas va nafs yo‘lini tutganlarning bari ishlari zalolatdir" deya uqtiradi.

Yetti pirning islom tamadduniga qo‘shgan hissasi beqiyos. Xususan ular faqatgina islom madaniyatiga emas balki islom san’atiga ham salmoqli hissa qo‘shishgan. Yetti pirning har biri bir hunarning mohir ustasi sifatida e‘tirof etilgan. Xususan xattotlik, mato to‘qish, kulollik, binokorlik, matoga gul tushirish, naqqoshlik kabi hunarlarni egallab, ularni boshqalarga ham o‘rgatishgan. Bu borada oltinchi pir hisoblanmish Amir Kulol faqatgina o‘tda kuymasligi bilan emas (aytilishicha Amir Kulolning hech bir tana a‘zolari o‘tda kuymas, faqat o‘zları emas balki kiygan kiyimlari ham alangalanmas ekan) yasagan sopol idish va laganlarining ta’rifi yetti iqlimda mashhur bo‘lganligi bilan ham e‘tiborlidir. Hunarmandchilik borasida ham ba’zi bir pirlarning o‘z hunarmadchilik maktablari bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotlar bor.

2018-yil 16-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Yetti pir majmualari qaytadan rekonstruksiya qilindi, obodonlashtirildi va butun dunyo turizm markazlaridan biriga aylantiridi. Joriy yilda shu xususda Buxoro va Qohira shaharlari "Islom madaniyati poytaxti" deb e‘lon qilindi. Bu haqida ISESCO rahbari Salim bin Muhammad al-Malik rasmiy ma‘lumot berdi. Yetti pirning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi faqatgina shu bilan baholanmaydi

albatta. Yetti pir Yerning yetti iqlimi uchun, islom dunyosida ham, ilm dunyosida ham, ma'naviyat dunyosida ham yetti ustun kabitidir.

## ЎРТА АСРНИНГ ДОНИШМАНД ҲУКМДОРИ

*Зилола Тўқсанова, БухДУ ўқитувчиси*

Тарихда ўзидан буюк ҳукмдор, одил подшоҳ, илму фан ҳомийси, маърифат раҳномоси, буюк бунёдкор деган юксак шон-шуҳрат ва улуғ ном қолдириган бобобимиз, буюк темурийзода – Мирзо Улуғбекдир. Тенгсиз ҳукмдор ҳисобланган Мирзо Улуғбек 1394 йил 22 март куни Ироки Ажамнинг Султония шаҳрида дунёга келган. Тарихчи Шарафиддин Али Яздий ўзининг “Зафарнома” асарида Улуғбекнинг туғилиши тӯғрисида қуидагича маълумот беради: “Тангри, жаҳон элларининг подшоси Шоҳрухга ўғил ҳадя қилди. Янги чақалоқ буюк, ҳосилдор ва серсув диёрда дунёга келди. Янги меҳмон баҳтли юлдуз остида туғилди”.

Улуғбекнинг туғилиши Амир Темурнинг Эрон ва Яқин Шарққа қилган “беш йиллик” юриши пайтига тӯғри келади. Чопар янги меҳмоннинг дунёга келганлиги ҳақида хабарни буюк Амирга етказганида Соҳибқирон Мордин қалъаси қамалига киришган эди. Чопарнинг Амир Темурга Улуғбекнинг туғилишини, мунажжимлар бу зурриёд келажакда олим ҳукмдор бўлади дея башорат қилганлигини етказади. Хушхабардан хурсанд бўлган Соҳибқирон дар ҳол қамални тўхтатиб, Мордин шаҳри аҳолисига омонлик беради, фуқароларни хирождан озод қилиб, шаҳарнинг ҳокимлик мансабини собиқ ҳоким амир Султон Исонинг укаси амир Султон Солиҳга инъом этади ва ўзи орқага қайтади.

Янги туғилган чақалоқка бобоси Амир Темурнинг таклифи билан Муҳаммад Тарагай деб исм қўйилади. Бу ном Темурнинг отаси ҳурматига нисбат қилиб берилган эди. Лекин у тарихда кўпроқ Муҳаммад Тарагай номи билан эмас, балки Улуғбек номи билан машҳурдир.

Шарқ ҳалқлари анъаналарига кўра бобоси ёки бувиси номи берилган фарзандни бобонинг ёки бувининг ҳурмати евазига уларга берилган ном билан чақирмасдан, “Отабек”, “Улуғбек”, “Онажон”, “Онам” деб чақирадилар. Шу сабабдан ҳам Муҳаммад Тарагайни бекларнинг улуғига қиёслаб “улуғ бек” (Улуғбек) деб эъзозлаганлар. Темур ҳам суюкли неварасини “Улуғим”, “Улуғбегим” деб эркалаган. Темур Улуғбекнинг тарбиясига алоҳида масъулият билан ёндашади ва энг зийрак невараси сифатида унга айрича эътибор қаратади. Соҳибқирон Улуғбекнинг таълим-тарбиясини ўзининг оқила аёли, катта хоним ҳисобланган Сароймулхоним (Бибихоним) га топширади.

Манбаларда қайд этилишича, Улуғбек бобосининг турли тадбир ва машваратларида қатнашган. У ёш бўлишига қарамай давлат кенгашларига, масъул қабул маросимларига ҳам киритилар ва ҳамиша бобосининг чап томонида ўтирган. Темур саройига келган испан элчиси Руи Гонсалес де Клавихо ўзининг “Кундаликлар”ида Соҳибқироннинг хорижий элчиларни қабул қилиш маросимида Улуғбек Мирзо ҳам иштирок этганлигини ёзиб қолдириган. Ҳаттоки Темур Улуғбекни Хитой юришига (1404й) ҳам бирга олиб кетган.

Мирзо Улуғбек 17 ёшида бобосининг улуғвор таҳтига ўтириб, мамлакатни 40 йил давомида адолатли ва донишмандлик билан бошқарган. Мамлакатда фанни ривожлантиришни ўзига хос дастурга мувофиқ амалга оширади. 1417 йил Бухоро, 1420 йил Самарқанд, 1433 йил Гиждувон шаҳарларида ўша даврнинг олий ўқув юртлари – мадрасаларнинг бунёд этилгани бунга яққол далиллар. Жаҳон илм-фани ва маданиятига улкан ҳисса қўшган буюк аллома, давлат арбоби Мирзо Улуғбек бобкалони Соҳибқирон Амир Темур сингари маърифат ва адолат билан ҳукмдорлик қилди. Астрономия, риёзиёт, тарих, фикҳ сингари фанлар унга куч қудрат бағишилади. Серқирра фаолияти учун йўлчи юлдуз бўлди. У Амир Темур бунёд этган салтанатни мустаҳкамлашга, мамлакат бирлигини сақлаб қолишига ҳамда маданий ҳаётни юксалтиришга интилди. У ўз атрофига турли соҳа билимдонларини тўплаб улардан сабоқ олди, аждодлардан қолган илмий мерос билан яхши танишди. Ўзи ҳам “Тўрт улус тарихи”, “Зики Кўрагоний”, каби кўплаб асарлар яратди, илмий академияга асос солди. Унинг Самарқанд академиясида 200 дан ортиқ олим фаолият кўрсатган. Бу эса у тузган дорулфунуннинг нақадар юксак илмий марказ бўлганлигидан